



TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH UCHUN TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI

Ro`ziboyeva Dilnura Abduvohid qizi

Qo`qon universiteti Andijon filiali FTO`ing 1-kurs talabasi

Address: dilnuraroziboyeva95@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari o'rganilgan.

Kalitso`zlar

Turizm sohasi, kadrlar tayyorlash, tizimni takomillashtirish, kasbiy ta'lim, amaliyot va nazariya uyg'unligi, xalqaro hamkorlik, akademik almashinuv dasturlari, professional rivojlanish, innovatsion o'quv metodikalari, turizm ta'limi standarti, dual ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, malaka oshirish, turizm marketing, raqamli turizm ta'limi, integratsiyalashgan o'quv dasturlari, turizmda xizmat ko'rsatish sifati, global turizm tendensiyalari, turizm iqtisodiyoti, barqaror turizm.

Abstract

This article analyzes the current state of the system of training personnel in the field of tourism in Uzbekistan, identifies existing problems and considers ways to solve them. It also examines the possibilities of improving the quality of education and expanding international cooperation based on the experience of foreign countries.



Key words

Tourism sector, personnel training, system improvement, vocational education, integration of practice and theory, international cooperation, academic exchange programs, professional development, innovative teaching methods, tourism education standard, dual education system, foreign experience, advanced training, tourism marketing, digital tourism education, integrated curricula, quality of service in tourism, global tourism trends, tourism economy, sustainable tourism.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan qonunlar va strategik dasturlar natijasida turizm infratuzilmasi rivojlanmoqda, xorijiy sayyohlar soni ortmoqda. Biroq ushbu sohaga yuqori malakali kadrlar yetkazib berish tizimi hamon to‘liq shakllanmagan. Shu bois, turizm ta‘limini rivojlantirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash va xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida ham turizmga kadrlar tayyorlash bo‘yicha turizmi kuchli rivojlangan davlatlarning ta‘lim dasturlaridan andozalar olgan holda o‘z modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar qilinmoqda. Shunga qaramasdan turizm sohasiga kadrlar tayyorlashda yo‘l qo‘yilayotgan bir muncha muammolar bitiruvchi talabalarning ishga joylashish ko‘rsatkichida ko‘zga tashlanib qolmoqda, bu muammolarni negizida bir nechta omillar sababdir.

Turistik xizmat sifati asosan inson omiliga — ya’ni turizmda faoliyat yurituvchi mutaxassislar bilim va malakasiga bog‘liq. Shu sababli, bu kadrlar tizimini rivojlantirish borasida yurtimizda ham keng ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-269-sonli “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori”. Unga ko‘ra, “2024/2025 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta‘lim muassasalarida turizm va mehmonxona



xo'jaligi sohalarida kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta'lim dasturlari asosida yo'lga qo'yiladi va o'quv jarayoni "blok-modul" tizimiga asoslangan dual ta'lim shaklida tashkil etiladi. Bunda, o'quv jarayonlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlar ulushini:

birinchi bosqichda — 80 foiz nazariy va 20 foiz amaliy;

ikkinchi bosqichda — 50 foiz nazariy va 50 foiz amaliy;

uchinchi bosqichda — 30 foiz nazariy va 70 foiz amaliy bo'lishi nazarda tutiladi"

Ushbu harakatlar kadrlarni sifatli tayyorlash uchun zamin yaratadi. "Qo'shimcha tarzda 2025-yil uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi quyidagilarni amalga oshiradi:

2024/2025 o'quv yiligacha turizm va mehmonxona xo'jaligi sohaları bo'yicha oliy ta'lim dasturlarini jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi nufuzli OTMlarning ta'lim dasturlari asosida qayta ko'rib chiqadi;

turizm va mehmonxona xo'jaligi sohalariga oid oliy ta'lim yo'nalishlarining dual ta'lim shakli bo'yicha Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi malaka talablari hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqadi"

Belgilangan OTMlar huzurida shartnoma asosida arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha kurslarni tashkil etadi".

"Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlar sonini oshirish maqsadida, oliy ta'lim muassasalari huzurida shartnoma asosida arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-



tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etiladi"¹. Bu kurslar talabalarni hamda turizm sohasiga qiziquvchilarni ushbu yo'nalish bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishiga hissa qo'shadi. Turizm sohasini rivojlantirish avvalo, turizm sohasidagi hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishi va kadrlar tayyorlashning sifatiga chambarchas bog'liq. Turizm sohasidagi kadrlarning asosida kishi, ya'ni "inson omili" yotadi hamda uning rivoji ta'lim sohasining taraqqiyoti bilan bog'liq. Shubhasiz turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash masalasini o'rganish barqaror rivojlantirish asosida borishi lozim. Bu holat bugungi kunda o'ta muhim masala bo'lib bormoqda. Avvalo, turizm sohasida kadrlar tayyorlash mehmonxonada xodimlarni boshqarish bu ayrim xodimlarga mehmonxona maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlik bilan, ongli, ijodiy mehnat qilishga eng maqbul sharoit yaratish maqsadida jamoaga sobit-qadamlik bilan har tomonlama ta'sir o'tkazish hisoblanadi. Shuning uchun , turistik korxonalarda ishlayotgan insonlar har uchala talqinda boshqaruv obyektda bo'lishi mumkin. Muhimi , ularning hammasi hamjihatlikda oxirgi natijaga erishish maqsadida yagona ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tizimi doirasida faoliyat ko'rsatishadi. Darhaqiqat, turizm sohasida kadrlarni o'rganishdan maqsad turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xosligi va bu jarayondagi vujudga keladigan muammolarni hal qilish yo'llarini o'rgatish hamda ularda rahbarlik, tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoqini shakllantirish hisoblanadi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida turistik korxonalarda xodimlarni boshqarish;
- inson omilini rolini yanada oshirish;
- xodimlarni xizmat-kasb jihatidan ko'tarilishini tashkil etish va boshkarish hamda kadrlar innovatsiyasi;



-mehnat etikasi, xodimlar xavfsizligini ta'minlash hamda turistik korxonalarda xodimlarni boshkarishni ilmiy asosda tashkil qilish kabilarini amalga oshirish;

-kadrlarning etarlicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ammo bugungi kunda ayrim hududlarda turistlar sonining ortishiga munosib ravishda xizmat ko'rsatish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida mehmonxona o'rinlari yetarli darajada tashkil etilmagan. Navoiy, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida esa, mavjud katta imkoniyatlardan foydalanilmayapti. Jumladan, yoshlarga mos turistik xizmatlar juda kam tashkil etilgan. «Oilaviy» va «barchasi ichida» xizmatlarni joriy qilish ishlari sust amalga oshirilmoqda. Lekin bu muammoni hal qilisha yurtimizda bartafar qilish uchun kundan kunga turizm sohasi rivojlanmoqda. Davlatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilib kelayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida ushbu yo'nalish tobora rivojlanib bormoqda. Sohani yanada taraqqiy ettirish, davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan yuksak maqsadlarga erishishda yetuk, zamonaviy kadrlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham sayyohlik yo'nalishida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalarida ham quyidagi muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu Oxirgi 3 yilda turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, ularda ta'lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4 100 nafardan 11 500 nafargacha oshgan. 2020 yilda oliy ta'lim muassasalarida turizm sohasida ta'lim beruvchi pedagoglarning ilmiy salohiyati 24,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 37,6 foizga yetdi. Bugungi kunda O'zbekistonning turizm sohasi yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda: xorijlik sayyohlar soni kundan-kunga oshib, ichki turizm jadal rivojlanmoqda, sohaga bog'liq infratuzilma shakllanib, xizmatlar eksporti tinimsiz o'smoqda. Bu yildan boshlab Prezident qaroriga asosan turizm sohasida



professional kadrlar tayyorlash to'liq davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilishi belgilandi. Prezidentimiz turizm sohasini juda keng rivojlantirish uchun qo'ldan kelgancha yordam berib va barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ushbu turizm sohasi doirasida kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari to'plangan va respublikamizda ulardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarda xodimlarni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar asosida Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya va Fransiya mamlakatlarida kadrlar, ya'ni kelajakda ishlaydigan xodimlar bilan munosabatlar takomillashgan.

Xulosa:

Turizm sanoati jahon miqyosida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, balki madaniy aloqalarni mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish kabi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarning amalga oshishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, turizm sohasida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash strategik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati bir qator omillar bilan bog'liq: turizm xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi, global standartlarning o'zgarishi, xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha raqobatning kuchayishi va mijozlar ehtiyojlarining murakkablashuvi. Shu boisdan, ta'lim muassasalari nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kreativ va kommunikativ salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etishi lozim. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda xalqaro hamkorlik alohida o'rin tutadi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, akademik mobillik, o'qituvchilar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish, xorijiy



ekspertlarni ta'lim jarayoniga jalb etish orqali milliy ta'lim tizimi xalqaro tajriba bilan boyitiladi. Bu esa, o'z navbatida, global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar, yetishtirish, imkonini yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn kurslar, masofaviy ta'lim, virtual treninglar orqali turizmga oid bilimlar yanada qulay va tezkor shaklda egallanishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, xalqaro darajadagi sertifikat tizimlarini joriy qilish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion metodikalarni keng qo'llash kabi chora-tadbirlar kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Umuman olganda, turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish — nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki mamlakat turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga, xalqaro maydondagi nufuzi va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Foydanaluvchi adabiyotlar:

1. Gulomkhasanov, E., & Rakhmatova, N. (2022). THE ROLE OF TASHKENT IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM. Scientific progress, 3(1), 183-188.
2. Shukhratovna, Y. S. (2021). Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 311-318.
3. Bozarov, E., & Babayeva, L. (2021). TURIZM SOHASIDA KLASSTERLARNING SAMARASI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(6), 208-212.



4. G'ulomxasanov, E., & Rahmatova, N. (2021). QASHQADARYO TURIZMIDA SHAHRISABZ SHAHRINING TUTGAN O'RNI. Scientific progress, 2(5), 483-487.

5. G'Uloomxasanov, E., Suyunova, N. J. Q., Akramov, S., & Asadova, S. B. Q. (2022). TURIZMNING NOODATIY TURLARI. Scientific progress, 3(1), 805-810.

6. Tuxliyev, I. S., Hayitboyev, R., Ibodullaev, N. E., & Amriddinova, R. S. (2010). The basics of tourism: A handbook. Samarkand: SamISI.